

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI**

2026- yil 20-aprel

QAROR 6-son

Toshkent sh.

**Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining
tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, tanlanma statistika kuzatuvlarini o'tkazish uslubiyotini ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiqlashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yanada takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktorining 2024-yil 29-apreldagi "Kichik korxona va mikrofirmalar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 64-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais



B. Hamrayev